

**TEKNOLOGIYA DARSLARINING SIFATINI OSHIRISH, O'QUVCHILAR  
TEKNIK IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA DARS  
ISHLANMALARINING AHAMIYATI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10184645>

**Radjabova Shahrizoda Olimjon qizi**

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti*

*4-bosqich talabasi*

*Dotsent: Maxsud Raxmatov*

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada o'rta maktabning eng asosiy bo'g'ini bo'lgan boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limining sifatini oshirishda, o'quvchilarning texnik ijodkorligini rivojlantirishda va tejamkorlikga o'rgatishda dars ishlanmalarining ahamiyati tabiiy materiallar va chiqindilar bilan ishlash texnologiyasini o'rgatish mavzusi bo'yicha ko'rsatib berilgan.*

**Kalit so'zlar**

*Boshlang'ich sinflar, texnologiya darsi, ta'lim sifati, texnik ijodkorlik, tejamkorlik, dars ishlanmasi, ekskursiya, namuna, kapalak, aplikatsiya, baliqlardan kompozitsiya.*

Bizga ma'lumki, uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish malakali kadrlar tayyorlash siyosatini rivojlantirish hamda ta'lim moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, barkamol avlod kadrlarini tayyorlashda asosiy shartlardan biri hisoblanadi va bu davlat ahamiyatiga ega bo'lgan masaladir. Shuning uchun mamlakatimiz rahbari sifatida Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'lim sifatini oshirish masalasiga juda katta e'tibor bermoqda. Misol sifatida, 2017-yil 14-yanvarda bo'lib o'tgan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisida davlatimiz rahbari ta'lim-tarbiya tizimida o'quv rejasi dasturlarini tubdan qayta ko'rib chiqish zarurligini qayt etgan edi, chunki ta'lim muassasalarida darslarni samarali tashkil etishda yetuk kadrlar bilan bu qatorida ta'limga doir me'yoriy hujjatlar o'quv-uslubiy ta'minotining o'rni katta. Prezidentimiz tomonidan o'qituvchining zamonaviy metodologiyasini yaratish va amalga joriy etish, o'quvchilarning ongli ravishda kasb-hunar tanlash ishtiyoqini kuchaytirish, darsliklarni yaratishga butunlay yangicha yondashish kabi vazifalar ayni shu maqsaddan kelib chiqqan holda qo'yilmoqda. Xuddi shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 25-yanvardagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus

kasb-hunar ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari tog'risida"gi PF- 5313 -sonli farmoni, 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'lim tizimida boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorini, 2020-yilda ishlab chiqilgan "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirishning chora-tadbirlari tog'risida"gi PF-6108-sonli qarorini, Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi , O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilning 3-fevraldagi "Xalq ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-22-sonli farmoyishini va boshqa hujjatlarni olishimiz mumkin. Taraqqiyot strategiyasida o'rta ta'lim tizimini zamon talablariga moslashtirish maqsadida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida darsliklarni yangilash dasturini amalga oshirish uchun davlat byudjetidan 605 mlrd so'm ajratildi. 141000 ta yangi o'quv o'rinlari yaratish va ularning sonini 2026-yil yakuniga qadar 6,4 milliongacha yetkazish rejalashtirilgan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, "Xalq ta'limi tizimini isloh qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoyishda xalq ta'limini yanada rivojlantirish, sohaga doir yangi tashabbuslarni ilgari surish va ularni qo'llab-quvvatlash, ta'lim-tarbiya sifatiga bevosita va bilvosita ta'sir qilish mumkin bo'lgan masalalarni hal qilish, ma'sul vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining bu boradagi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha aniq maqsad va vazifalar belgilab berildi.

Ma'lumki, o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich ta'lim eng asosiy bo'lib hisoblanadi, chunki boshlang'ich ta'lim qanchali sifatli berilsa o'quvchilarni keyingi ta'lim olishlari shuncha samarali bo'ladi. Shuning uchun "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 9-moddasida shunday deyilgan.

"Boshlang'ich ta'lim, ta'lim oluvchilarga bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan". Haqiqatan ham boshlang'ich ta'lim keyingi ta'limni sifatli bo'lishida katta rol o'ynaydi. Boshlang'ich ta'lim o'quv darsliklarida mavzular bo'yicha materiallar yetarli darajada emas. Ammo, fan to'garaklarida, uyga vazifalar berishda, mustaqil ta'lim olish uchun berilgan materiallar yetarli emas, shuning uchun mavzu bo'yicha tayyorlanadigan dars ishlanmalari katta ahamiyatga ega.

Ushbu maqolada biz boshlang'ich sinflarda texnologik ta'lim sifatini oshirishda, o'quvchilarning texnik ijodkorligini rivojlantirishda, tejamkorlikka o'rgatishda dars ishlanmalarining ahamiyatini o'quvchilarga tabiiy materiallar va chiqindilar bilan ishlash texnologiyasini o'rgatish mavzusi misolida ko'rib o'tamiz.

Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilari texnologiya darslarida qog'oz va kartondan tashqari tabiiy materiallar va chiqindilar bilan ham ishlashadi, shuning uchun tabiiy materiallar va chiqindilar bilan ishlash texnologiyasini o'quvchilarga o'rgatish katta ahamiyatga ega.

Tabiiy materiallar bilan ishlash jarayonida o'quvchilar ona tabiat bilan yaqinlashishga, unga tejamkorlik va mehribonlik, ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishga o'rganadi.

Tabiiy material-bolalar ijodiyotini rivojlantirish uchun asosiy tayanch hisoblanadi. O'quvchilarga o'yinchoq va buyumlar yasashda, ulardan qanday foydalanishni o'rgatish zarur. Shu maqsadda tabiiy materiallar burchagi tashkil etilishi kerak.

Tabiiy materiallardan buyum va o'yinchoqlarni tayyorlash-qiziqarli, oddiy bo'lgan va juda yoqimli mehnatdir. Tabiiy materiallarni to'plash, saqlash va ularga ishlov berish tabiatshunoslik darslarida egallagan bilimlarni qo'llash hamda ularni mustahkamlash imkonini beradi. O'quvchilar tabiatdagi ekskursiyalar vaqtida turli xil tabiiy materiallar, masalan: yong'oqlar, barglar, shoxchalarni, ko'l, hovuz qirg'oqlaridan-chiroyli toshlar, chig'anoqlarni olib kelishadi. O'quvchilar tabiiy materiallarni to'plash jarayonida turli materiallarni teradilar, ushlab ko'radilar, shaklini, rangini, har birining xususiyatini o'rganadilar. Bu esa materiallarning nomini eslab qolishga yordam beradi. Masalan, bolalar yong'oqning yumaloqligini, jigarrang ekanligini, ustki qismi g'adir-budir ekanligini bilib oladilar, yong'oqini esa oval shaklda, yaltiroq sariq-jigarrang bo'lishini bilib oladilar.

Tabiat bilan bo'lgan muloqot bolalarning tasavvurini kengaytiradi, diqqat bilan kuzatish qobiliyatini shakllantiradi, tabiiy materiallardan buyumlar yasashda idrok va tasavurning bir butunligini saqlaydi. Buyumlarni yasashda o'quvchilar avval qiynalsalar, keyinchalik, uzluksiz mehnat natijasida bolaning o'ziga xos ishonch, aniqlik, qoniqish va xohish kabi sifatlarga ega bo'ladi va barmoqlari yengil harakat qiladi. Tabiiy materiallar bilan ishlash bolaning aqliy rivojlanishiga, tafakkuri va rivojlanish qobiliyatining rivojlanishiga katta ta'sir qiladi. Tabiiy materiallardan buyumlar tayyorlash jarayonini kuzatadigan bo'lsak, boshqa bolalar namunani ko'rib chiqadilar, uning tarkibini, tayyorlash usulini tahmin qiladilar; bu jarayoni o'zlashtirgandan so'ng ish murakkablashadi. O'quvchiga tayyorlanadigan o'yinchoqning rasmi va fotosurati ko'rsatiladi va ular topshiriq yoki o'zining o'ylagan fikri asosida buyumni yasaydilar.

O'yinchoqlarning tabiiy materiallardan tayyorlanishining qiziqarliligi o'quvchilarning diqqatini oshiradi, uning mustahkamligini oshiradi. Erkin diqqat shakllanadi. Masalan, kuchukchani tayyorlashda o'quvchilarga avval uning

oyoqchalarini mahkamlash joylarini diqqat bilan ko'rib chiqib (ular simmetrik holda turishini, past ham baland ham bo'lmasligi, haqiqiy o'xshashi kerak) teshiklarini belgilash, boshi va boshqa detallarini mahkamlash joylarini ko'rib chiqishi tavsiya etiladi.

Tabiiy materiallardan qilingan buyumlar ko'pincha o'quvchilarning qiziquvchanligini qoniqtiradi. Bu mehnatda har doim yangilik, ijodiy izlanish, yanada yuqori natijalarga erishish imkoniyati bor. O'yinchoqlarni tayyorlashda bolalarni qulay emotsional yo'naltirish, mehnatda muloqot quvonchi, chiroyli o'yinchoq yasash jarayonida rohatlanish hissi umumiy rivojlanish uchun juda muhimdir. Tabiiy materiallardan o'yinchoqlar yasash mehnati o'quvchi shaxsining rivojlanishiga yordam beradi.

O'yinchoqni yasash oson ish emas. Uni yasashda noaniqlikka duch kelganda, o'quvchilarga uni mustaqil ravishda uni bajarish yo'llarini o'rgatiladi. Bazen biron bir ishni yasash uchun kerakli o'lchamga eman daraxtining g'uddalarini tanlash, o'yinchoq qisimlarini tanlash o'lchash yo'llarini amalga oshirish va h.k.

O'qituvchi yordamida o'quvchi omadsizlik sababini, bartaraf va yengish yo'llarini o'rganadi. Shu asnoda unda maqsadga intilish, qatilik, boshlangan ishini oxiriga yetkazish kabi sifatlar shakllanadi.

Ushbu mehnat turida o'z faoliyatini baholash va nazorat qilish sifatini shakllantirishning real imkoniyatlari bor.

Tabiiy materiallardan o'yinchoq yasash mehnati individual va jamoaviy bo'lishi mumkin. Kattalar kabi o'quvchilarga ham jamoaviy mehnat ulkan quvonch olib keladi. Bu yerda shunisi muhimki, o'quvchilar jamoaviy mehnatning natijasini, foydasini tushunishlari kerak. Sinf o'quvchilarini 3-5 guruhga bo'lib har bir guruhga alohida o'yinchoqni yasashni vazifa qilib berishsa va keyin texnologiyasini so'zlab berishlarini tashkil qilish albatta darsning samarasini albatta so'zsiz oshiradi. Buning uchun albatta bir nechta o'yinchoqlarni tanlab olib, ularni yasash kerak bo'ladi.

Texnologik ta'limda tabiiy materiallardan foydalanishning ekologik toza, mavjudligi, ijodkorligi, kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish kabi afzalliklari mavjud.

Tabiiy materiallar kimyoviy komponentlarga qaraganda ancha xavfsizroq va atrof-muhitga zarar yetkazmaydi.

Tabiiy materiallar hamma uchun mavjud va ularni sotib olish uchun katta xarajatlar talab etilmaydi.

Tabiiy materiallarning kombinatsiyasi noyob ijodkorlik yaratish va o'z ijodingizni namoyish etish imkonini beradi.

Tabiiy materiallar bilan ishlash tasavvurni, mantiqiy va ijodiy qobiliyatlarni rag'batlantiradi, xotirani, diqqatni va nozik vosita mahoratini yaxshilaydi.

Texnologiya yana eng muhim vazifalaridan biri o'quvchilarni tejamkorlikka o'rgatish hisoblanadi. Ma'lumki, biz hayotimizda yashash jarayonida turli kiyim-kechaklardan, buyumlardan, oziq-ovqatlardan va boshqa turdagi mahsulotlardan foydalanamiz. Bu turdagi mahsulotlarni bizgacha yetib kelishida foydalanilgan buyumlar, turli quttilar, idishlar, g'iloqlarni chiqindi material sifatida axlatlarga tashlaymiz, E'tibor bermaymizki, bu chiqindi materiallardan turli kerakli buyumlar, foydalanish mumkin bo'lgan narsalar tayyorlash mumkin. Shu bilan birga turli chiqindi materiallardan o'z o'rnida kerakli foydalanib, keraksizini tartib bilan axlat idishlariga tashlasak, atrof-muhitni ifloslanishini, ekologiya buzilishini qisman bo'lsa ham kamaygan bo'ladi. Masalan: suv va turli yelim idishlarini yarmigacha kesib, idish atrofini turli narsalar bilan bezab ro'zg'orda foydalanish mumkin bo'lgan turli idishlar (taroq solgich, qalamdon, chiqindi qutichasi)ni yasash mumkin, baklashka qopqog'idan choynak tagligini tayyorlash mumkin. Yoki shampun, kofe, bolalar kashalari, turli yog'lar va margarinlarning plastmassa idishlaridan turli buyumlarni tayyorlash mumkin.

Endi tabiiy materiallar va chiqindilar bilan ishlash texnologiyasiga to'xtalib o'tamiz.

Tabiiy materiallar tarbiyachi rahbarligida ekskursiyalarda to'planadi. Ekskursiya uyushtirishdan oldin bolalarga bo'lajak ish namunasi ko'rsatiladi. Bolalar uni diqqat bilan ko'rib, unda ishlatilgan barg plastinkalarining shaklini, daraxt navlarini aniqlaydilar. Shundan so'ng uyushtiriladigan ekskursiya rejasi tuziladi. Ekskursiya marshrutida alohida e'tibor beriladigan o'bekt(eman, zarang, akatsiya daraxtlari, hasharotlar, ninachi)lar aniqlanadi. Bolalarning e'tiborlari va aqliy faoliyatlarini kuzatilayotgan o'bektning zarur bo'lgan asosiy muhim belgilari va xususiyatlarini ajratishga, to'planayotgan materialni to'g'ri baholashga yo'llaydigan savollar tuziladi.


Daraxtzorga kelganda bolalar kayfiyati ko'tarilib, ular har narsaga qiziqish bilan qaraydilar, barglar, ularning ranglari bolalarni ajablantiradi. Ular kuzning butun go'zalligini, uning ranglarini, to'kilgan barglar hidi va ular o'zining elastiklik xususiyatini yo'qotganligini, qattiqlashib, sinuvchan bo'lib qolganligini ko'radilar. Bolalarning atrof-tabi'at bilan zavqlanishlari kamayib borishga qarab, ularning e'tibori barglarning shakli, daraxtlar navlariga qaratiladi. Ana shu vaqtda o'simliklarda sodir bo'layotgan ichki jarayonlar qisqa va tushunarli shaklda bayon etib beriladi: jumladan, o'simlik yangi sharoitlarga moslashib, qishga tayyorgarlik ko'ryapti. Barglarni to'kish bu o'ziga xos himoya turidir, chunki barglar suvni ko'p

bug'lantiradi, qishda esa tuproqdan namlik juda kam miqdorda keladi. Shundan keyin bolalarning e'tibori atrofda uchib yurgan kapalak, ninachilarga, ularning asosiy belgilariga jalb qilinadi. Uchib yurgan hasharotlar ularning tuzilish shakllarimehnat darslarida hasharotlar applikatsiyasini tayyorlash uchun obraz, to'plangan barglar material xizmatini o'tashi kerak.

Bolalar barglarni to'plar ekanlar, ularning ranglari, shakllarini qiyoslashni o'rganadilar, bu ularning kuzatuvchanligini o'stirishga yordam beradi. To'plangan barglar oldindan tayyorlab qo'yilgan daftar varaqlari orasiga qo'yiladi. Shundan keyin bolalarga barglarning mehnat mashg'ulotlarigacha rangini yo'qotmasligi, buralib ketmasligi uchun qanday ishlov berish kerakligi tushuntiriladi. Har bir ekskursiyada bolalarning e'tiboriinsonning yaratuvchilik mehnatiga albatta jalb etilishi kerak. Ekskursiya oxirida unga yakun yasaladi, ekskursiyada egallangan bilimlar umumlashtiriladi. Bundan tashqari, bolalarga kapalak va ninachilar tasviri tushirilgan rasmlarni ko'rish, ularning tanasi va qanotlarining shakli, rangi qandayligiga alohida e'tibor berish topshiriladi.

1-rasm. Tabiiy materiallardan tayyorlangan kapalak.

a) Mosh, no'xat, bo'yalgan no'xatdan tayyorlangan kapalak.



b) Grechka va makkajo'xoridan tayyorlangan kapalak.



c) Archa mevasi va barglardan tayyorlangan kapalak.



g) Mosh, no'xat va sedanadan tayyorlangan kapalak.



Bunday uyushtirilgan ekskursiyadan keying mashg'ulotda bolalar applikatsiyalarni zo'r ishtiyoq bilan namoyish qiladilar, agarda applikatsiyani o'z istaklariga ko'ra, o'zlari to'plagan materiallardan mustaqil yasash topshirilsa, qiziqishlari yanada ortadi. Bunday mashg'ulot quyidagi sxemaga ega bo'lishi mumkin:

1. Mashg'ulot mavzusi va maqsadini aytish.
2. O'tkazilgan ekskursiya bo'yicha suhbat quyidagicha bo'ladi:
  - a) Ekskursiyada qayerda bo'ldik?
  - b) Qanday daraxtlarni ko'rdik, ularning nomi qanday?
  - c) Ularning barglarining shakli bir xilmi?
  - d) Qanday hasharotlarni ko'rdik?
3. Namuna tahlili:
  - a) Kapalak qanday qismlardan tashkil topgan?
  - b) Uning qismlari qanday joylashgan?
  - c) Uni tasvirlashda qaysi daraxtlar barglaridan foydalanilgan?
4. Ishni bajarish tartibini aniqlash:
  - a) Kapalakning ayrim qismlari(tanasi,qanotlari)ning joylashishini tasvirlash;
  - b) Kapalakning tanasi va qanotlari uchun shakli hamda o'lchamlari bir xil bo'lgan barglarni toppish;
  - c) Ularni qog'ozda joylashtirish;
  - d) Ishni amaliy bajarish.
5. Tarbiyachining ishni bajarish usullari haqidagi tushuntirishlari.
6. Applikatsiyani bajarish uchun mustaqil ish:



- a) Kapalakning ayrim qismlarini qog'ozda to'g'ri tasvirlash;
- b) Shakl, o'lcham va bo'yoqlarni to'g'ri tanlash;
- c) Yelimlash ishlarini tartibli bajarish;
- d) Kapalakning mo'y va ko'zlarini to'g'ri tasvirlash;
- e) Ish bajarilgan qog'ozning orqasida barglaridan foydalanilgan daraxtlarning nomlarini yozish.

#### 7. Ishni baholash.

Dars jarayonida o'quvchilarni texnik ijodkorligini oshirish uchun alohida topshiriq ham berish mumkin.

Amaliy darsda darslikda berilgan topshiriqqa qo'shimcha ravishda ko'rsatilgan o'yinchoqlarni ham bajarish vazifa qilib berilsa va ularni 4-5 ta o'quvchilardan tashkil qilingan guruhchalarga bo'lib berilsa, bir vaqtning o'zida bir nechta o'yinchoq tayyor bo'ladi, natijada o'quvchilar ishining samaradorligi oshadi, chunki o'quvchilar har bir o'yinchoqni yasash texnologiyasi bilan tanishadilar.

1-rasmda tabiiy materiallardan tayyorlangan kapalaklar ko'rsatilgan. Ana shu rasmdagi kapalaklarni o'quvchilar kichik guruhlariga bo'linib bajarganda dars ancha samarali bo'ladi.

Ijodiy xarakterdagi ishlar. Masalan: "Baliqlardan kompozitsiya tuzish". Tarbiyachi umumiy vazifa beradi, bolalar esa, tarbiyachi namunasi asosida o'z variantlarini izlaydilar.

Tarbiyachi doskaga baliq rasmi tasvirlangan plakatni osib qo'yib, bolalar bilan birgalikda baliq tanasi, baliqning boshi, qanotlari, dumining shakli tahlil qilinadi. Baliq turiga ko'ra uning tanasi, qanot va dumlari har xil bo'lishi mumkinligi aniqlanadi, shuning uchun bu ishda turli tabiiy materiallardan foydalanish mumkin bo'ladi. Shundan so'ng ishni bajarish tartibi aniqlanadi. Avval baliq qismlari uchun material tanlash, uning umumiy tarhini chizish kerak. Shundan keyin qaysi detalning qanday tartibda yelimlanishini, detallarning joylarini aniqlash va so'ngra ishga kirishish lozim. Bunday yumushlar bajarilayotgan ishga ijodiy yondashishni o'stirishga yordam beradi. Mashg'ulotga yakun yasash va bajarilgan ishni baholashda tarbiyachi foydalanilgan materiallar nomini so'raydi.

Shu bilan birgalikda ayrim o'yinchoqlarni uyda mustaqil bajarish o'quvchilarga vazifa ham berishi mumkin. Shunday qilib, dars ishlanmalari yordamida o'quvchilar guruhlariga bo'linib, bir necha o'yinchoqlarni yasashlari mumkin. Ishni bajarish jarayonida texnik ijodkorlik va tejamkorlik qobiliyati o'quvchilarda shakllanadi.

Demak, tajribalar va kuzatishlar shuni ko'rsatadiki dars jarayonida o'quvchilar tabiiy materiallardan foydalanib, nafaqat darslikda berilgan, balkim o'qituvchi o'zi qo'shimcha bergan o'yinchoqlarni tayyorlasa darsning sifati oshar ekan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasining rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" da amalga oshirishga oid Davlat dasturi o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy risolasi. Toshkent "Ma'naviyat" 2017-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi qonuni" Toshkent shahri 2020-yil 23-sentabr O'RQ 637.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirishning chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-6180-sonli farmoni. Toshkent 6-noyabr 2020-yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" gi PQ-4884-sonli qarori. Toshkent 6-noyabr 2020-yil.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-fevraldagi "Xalq ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-22-sonli farmoyishi. Toshkent sh. 2022-yil 3-fevral. F-22 farmoyishi.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-sonli farmoni. Toshkent 2022-yil 28-yanvar.
7. X.Sanoqulov, D.Xodiyeva, M.Satbayeva "Mehnat va uni o'qitish metodikasi" Toshkent-2015.
8. X.Sanoqulov, D.Xodiyeva "Boshlang'ich sinflarda qog'ozdan amaliy ishlar" metodik qo'llanma 2012-yil T.Ipak yo'li poligraf, 2012.
9. X.R.Sanoqulov, Xodiyeva.D.P "Boshlang'ich sinfda tabiiy materiallardan amaliy ishlar" o'quv qo'llanma 2019-yil. TDPU.